

## THE STRUCTURE OF SMALL BUSINESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT

**Maksimov Rustamjon Dostonbek ugli**

1st-year student, "Economics" program  
"University of Economics and Pedagogy" NTM

**Abstract.** This article examines the structure of small business in the Republic of Uzbekistan and its impact on economic development. Within the framework of the study, such entities as microfirms, individual entrepreneurs, dehqan farms, family businesses, artisans, and sellers of imported goods are analyzed. The article highlights the role of small business in enhancing regional economic activity, ensuring employment, and increasing household incomes. The research demonstrates that small business contributes significantly not only to the development of local markets but also to regional and national economic growth.

**Keywords:** small business, microfirm, individual entrepreneur, dehqan farm, family business, artisan, economic development.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIKNING TARKIBI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

**Maksimov Rustamjon Dostonbek o‘g‘li**

"University of Economics and Pedagogy" NOTM  
"Iqtisodiyot" yo‘nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning tarkibi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida mikrofirmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlarini sotuvchilar kabi subyektlar tahlil qilinadi. Maqolada kichik tadbirkorlikning hududiy iqtisodiy faollik, bandlikni ta’minlash va aholining daromadlarini oshirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes nafaqat mahalliy bozorlarni rivojlantirishga, balki hududiy va milliy iqtisodiy o‘sishga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

**Kalit so‘zlar:** kichik tadbirkorlik, mikrofirma, yakka tartibdagi tadbirkor, dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik, hunarmand, iqtisodiy rivojlanish.

### **Kirish.**

Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyoti bozor tamoyillari asosida mustahkamlanib borayotgan bugungi sharoitda kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Xususiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali davlat bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini takomillashtirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining, 02.05.2012 yildagi O‘RQ-328-son "“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun hamda unga kiritilgan o‘zgartishlar tadbirkorlik subyektlariga qonuniy himoya va barqaror faoliyat yuritish sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi [1]. Ushbu qonunning mazmuni tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etish, huquqlarni himoya qilish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi, bu esa kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini rag‘batlantiradi .

Kichik tadbirkorlik subyektlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, dehqon xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlar va hunarmandlar kiradi. Ularning iqtisodiy tizimdagi o'rnini ko'p qirrali bo'lib, milliy bandlikni oshirish, aholi daromadlarini barqarorlashtirish hamda ichki bozor talabini qondirishga xizmat qiladi. Bu subyektlarning rasmiy statistik ro'yxati orqali mamlakat iqtisodiy tizimining kichik segmentlaridagi faollik darajasi aniqlanadi. Xalqaro va mahalliy statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlaridan biri bo'lib xizmat qiladi, ularning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada o'sib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami soni oshib bormoqda. Rasmiy statistik axborotlarga asoslangan holda, 2025-yil holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari tarkibi kengaygan bo'lib, bu o'zgarish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu statistika tadbirkorlik sohasidagi dinamik jarayonlar, savdo va xizmatlar faoliyatining kengayishi, shuningdek kichik biznesning iqtisodiy integratsiyasini ko'rsatadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ahamiyatini yanada chuqur tahlil qiladigan tadqiqotlarda bu subyektlar iqtisodiy o'sish, qat'iy bozor talablariga moslashuvchanlik hamda bandlikni oshirish masalalari bilan uzviy bog'liq deb topilgan. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatlari, shu jumladan soliq imtiyozlari, biznesni ro'yxatdan o'tkazish soddalashtirilgan tartiblari kabi chora-tadbirlar qo'llanilmoqda, bu esa kichik tadbirkorlarni rasmiy iqtisodiyotga jalb etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlikning jamiyat hayotidagi o'rnini faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyatning turmush darajasini oshirish hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda ham o'z aksini topadi. Demak, kichik tadbirkorlik subyektlarining strukturaviy o'zgarishi va faoliyatining kengaytirilishi mamlakat iqtisodiy tizimiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar yakka tartibdagi tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi o'rnini, bandlikni oshirish, YAIMdagi ulushi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi masalalariga bag'ishlangan. Jumladan, Doniyor Niyozmetovning statistik tahlil asosidagi ishlari O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi hamda iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini atroflicha o'rganadi [2], bu ularning iqtisodiy faollikning barqarorligini ko'rsatadi.

Mahalliy izlanuvchilardan Qobuljon Xudoberganov esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining milliy iqtisodiy tizimdagi o'rnini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi hamda mavjud muammolarni tahlil qiladi [3]. Bu ish davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash strategiyalarini shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi. Davron Ruzmetov va Murodjon Saidovning tadqiqotida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida imtiyozli kredit tizimi tahlil qilinadi [4,5]. Ularning maqolasi iqtisodiy samaradorlik va tadbirkorlik subyektlarining barqaror o'sishiga moliyaviy choralar ta'siri haqida ilmiy yondashuvni taqdim etadi. To'lg'in Shodiyev tomonidan yozilgan maqola kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi roli, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yuzaga chiqaradi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi [6]. Bu tadqiqot kichik biznesning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Shahrizoda Abdulazizovanning ishlari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlariga e'tibor qaratadi. U hududlar kesimida tadbirkorlikning taraqqiyoti hamda bu jarayonda yuzaga keladigan iqtisodiy tafovutlarni ilmiy asosda ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro kontekstda Shohista Azimova va Nilufar Rizayeva tomonidan tayyorlangan maqola kichik biznes tushunchasining mohiyati, global iqtisodiyotdagi o'rnini va ijtimoiy-iqtisodiy tahlilini beradi [7,8]. Bu maqola milliy tajriba

bilan solishtirma o'rganish orqali kichik biznesning global rolini yoritadi. Abduraximov Abdunozimning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishdagi roli" nomli maqolasi ham mavzuga bevosita mos bo'lib, unda kichik biznes subyektlarining ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi ilmiy tahlil orqali bayon etiladi [9]. Boshqa izlanishlar ham kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizlik, bandlikni oshirish, hududiy iqtisodiyot va raqamli infratuzilma masalalarini ko'rib chiqadi. Masalan, Abdulhamid Akbarov kichik biznes subyektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga e'tibor qaratadi [10].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar jamiyati kichik tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga, bandlikni oshirishga, innovatsion rivojlanishga va hududiy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sirini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda ularni milliy va mintaqaviy strategiyalarga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning tarkibi va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, unda nazariy, statistik va solishtirma tahlil usullari qo'llanilgan.

Birinchi bosqichda mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, olimlarning tadqiqotlari va xalqaro tajribalar o'rganildi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha rasmiy qonun hujjatlari, jumladan "Yakka tartibdagi tadbirkorlik to'g'risida"gi qonun va "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi normativ-huquqiy aktlar tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda empirik ma'lumotlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan berilgan rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining hududiy taqsimoti, faoliyat ko'lami va tarkibi o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar hududiy farqlar, YTTlar, mikrofirmalar, dehqon xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligi jihatidan tahlil qilindi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi solishtirma tahlil usuliga asoslangan bo'lib, hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning o'sish sur'ati, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlariga ta'siri aniqlangan. Shu bilan birga, tadqiqotda siyosiy-iqtisodiy kontekst ham hisobga olingan, ya'ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari va biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartiblari tadbirkorlik faolligi bilan bog'liq tarzda tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda sistemali va integratsion yondashuv qo'llanilgan, ya'ni nazariy bilimlar va empirik ma'lumotlar uyg'unlashtirilib, kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli ilmiy asosda aniqlangan. Natijalar hududiy iqtisodiy tafovutlar, bandlik va aholi daromadlariga ta'sir jihatidan tahlil qilinib, maqola bo'limlari davomida batafsil yoritiladi.

Ushbu metodologiya tadqiqotga ilmiy aniqlik, statistik asos va rasmiy qonun hujjatlariga moslikni ta'minlaydi hamda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini real holatga yaqin tahlil qilish imkonini beradi.

### **Tahlil va natijalar.**

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-oktabr holatiga, birlik**

1-jadval

|                                     | Jami             | shundan:                                                                                     |                                                                                                                     |
|-------------------------------------|------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                     |                  | kichik korxona<br>va mikrofirmalar<br>(fermer va dehqon<br>xo'jaliklarini qo'shgan<br>holda) | YATT, dehqon xo'jaliklari,<br>oilaviy tadbirkorlar,<br>hunarmandlar va import<br>tovarlari sotuvchilar <sup>1</sup> |
| <b>O'zbekiston<br/>Respublikasi</b> | <b>1 212 040</b> | <b>478 988</b>                                                                               | <b>733 052</b>                                                                                                      |
| Qoraqalpog'iston<br>Resp.           | 57 147           | 23 912                                                                                       | 33 235                                                                                                              |
| Andijon                             | 125 598          | 28 429                                                                                       | 97 169                                                                                                              |
| Buxoro                              | 78 358           | 29 510                                                                                       | 48 848                                                                                                              |
| Jizzax                              | 53 538           | 21 981                                                                                       | 31 557                                                                                                              |
| Qashqadaryo                         | 95 823           | 36 904                                                                                       | 58 919                                                                                                              |
| Navoiy                              | 39 899           | 20 543                                                                                       | 19 356                                                                                                              |
| Namangan                            | 90 012           | 27 609                                                                                       | 62 403                                                                                                              |
| Samarqand                           | 127 099          | 44 072                                                                                       | 83 027                                                                                                              |
| Surxondaryo                         | 72 233           | 25 973                                                                                       | 46 260                                                                                                              |
| Sirdaryo                            | 35 284           | 13 369                                                                                       | 21 915                                                                                                              |
| Toshkent                            | 96 985           | 44 955                                                                                       | 52 030                                                                                                              |
| Farg'ona                            | 115 011          | 40 945                                                                                       | 74 066                                                                                                              |
| Xorazm                              | 88 912           | 27 244                                                                                       | 61 668                                                                                                              |
| Toshkent sh.                        | 136 141          | 93 542                                                                                       | 42 599                                                                                                              |

Yuqoridagi jadval 2025-yil 1-oktabr holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni o'zgaruvchan va hududiy tafovutlarni aks ettiradi (1-jadval). Umumiy hisobda, mamlakat bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari 1,2 milliondan ortiq bo'lib, ular ikki asosiy guruhga bo'linadi: kichik korxona va mikrofirmalar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT), dehqon xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilari. Bu bo'linish hududiy iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Hududiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri kichik tadbirkorlik subyektlarining soni bo'yicha yetakchi pozitsiyada. Shahar aholisi va sanoat infratuzilmasining rivojlanishi, shuningdek xizmat ko'rsatish sektori yuqori talabga ega bo'lgani sababli, bu hududda kichik biznes subyektlari yuqori darajada faoliyat yuritmoqda. Toshkent shahrida aynan kichik korxona va mikrofirmalar soni ham juda yuqori bo'lib, bu hududiy iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda muhim omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, YTT va boshqa kichik tadbirkorlik subyektlari ham sezilarli darajada mavjud bo'lib, ular mahalliy bozorlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Samarkand va Farg'ona viloyatlari ham kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo'yicha yetakchi hududlar qatoriga kiradi. Bu hududlarda mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining yuqori darajasi mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Farg'ona viloyatida YTT va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining ulushi hududiy iqtisodiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Andijon, Namangan va Xorazm viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy soni o'rtacha darajada bo'lsa-da, hududiy rivojlanish va bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham mikrofirmalar va YTTlar sonining o'sishi hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Buxoro va Navoiy viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni boshqa rivojlangan hududlarga nisbatan pastroq bo'lsa-da, mahalliy iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlikning soni o'rtacha bo'lib, hududiy tafovutlar, aholining ish bilan ta'minlanishi va mahalliy iqtisodiy faollik darajasi bilan izohlanadi. Bu hududlarda ham kichik biznes va YTTlar hududiy iqtisodiy rivojlanishda hissa qo'shadi, shuningdek, dehqon xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik mahalliy ishlab chiqarish



va xizmatlar sohasini rivojlantirishga yordam beradi. Umuman olganda, rasmiy statistik ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. Toshkent shahri va viloyatlari, shuningdek Samarkand, Farg'ona va Namangan kabi hududlar yetakchi o'rinlarni egallaydi, bu hududlar iqtisodiy faollik va bandlikni oshirish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqa hududlarda ham kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining hududiy taqsimoti iqtisodiy faoliyatning geografik xususiyatlarini ochib beradi va davlat siyosatini hududlararo farqlarni kamaytirish, bandlikni oshirish va mahalliy iqtisodiy resurslarni samarali ishlatishga yo'naltirishga imkon yaratadi. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati hududiy rivojlanish strategiyalarida muhim parametr sifatida e'tiborga olinishi lozim.

#### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlanish va hududiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Rasmiy statistika va tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va viloyatlar, shuningdek Samarkand, Farg'ona va Namangan kabi hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni yuqori bo'lib, ular mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, boshqa hududlarda ham kichik biznesning barqaror rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining hududiy taqsimoti iqtisodiy faoliyatning geografik xususiyatlarini aks ettiradi va davlat siyosati orqali iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga imkon yaratadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, kichik tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish va hududiy rivojlanishga hissa qo'shishini kuchaytirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

✓ Hududiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish - kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida rivojlanishini rag'batlantirish uchun maxsus hududiy dasturlar va grantlar joriy etilishi zarur. Ayniqsa, kam rivojlangan viloyatlarda mikrofirmalar va YTTlar uchun moliyaviy imtiyozlar va kredit resurslari kengaytirilishi lozim.

✓ Soliq va ma'muriy imtiyozlarni kengaytirish - kichik tadbirkorlik subyektlarini rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish va ularning faoliyatini barqarorlashtirish uchun soliq stavkalarini soddalashtirish, ro'yxatdan o'tish jarayonlarini tezlashtirish va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish tavsiya etiladi.

✓ Malaka oshirish va konsultativ yordam - tadbirkorlar uchun hududiy markazlarda biznes va moliyaviy konsultatsiya xizmatlarini tashkil etish, zamonaviy menejment, marketing va innovatsion texnologiyalar bo'yicha o'quv kurslarini yo'lga qo'yish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

✓ Raqamli infratuzilmani rivojlantirish - kichik tadbirkorlik subyektlari uchun elektron to'lov tizimlari, onlayn savdo platformalari va raqamli monitoring xizmatlarini kengaytirish orqali ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

✓ Hududiy monitoring va statistik bazani kuchaytirish - Milliy statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy organlar tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududiy rivojlanishi, faoliyati va samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar bazasi doimiy yangilanib borilishi lozim. Bu davlat siyosatini shakllantirish va hududiy iqtisodiy strategiyalarni optimallashtirishga yordam beradi.

Shu asosda, kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni yanada kuchayadi, hududiy farqlar kamayadi va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanadi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatini yanada samarali amalga oshirish va aholi turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ-328-son.
2. G.Z.Shagaipova, Kichik biznes va tadbirkorlik fanidan uslubiy qo'llanma // Tuzuvchi. - Toshkent: ToshDTU, 2015. -61 bet
3. Niyozmetov D. Kichik biznesning YAIMdagi ulushi va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021. – 128 b.
4. Xudoberganov Q. Milliy iqtisodiyotda xususiy tadbirkorlikning o'rni va rivojlanish muammolari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 142 b.
5. Ruzmetov D., Saidov M. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash: imtiyozli kredit tizimi tahlili. – Iqtisodiy tahlil jurnali, 2019, №4, b. 45–58.
6. Shodiyev T. Kichik biznes va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot va menejment nashriyoti, 2022. – 110 b.
7. Abdulazizova Sh. Mintaqaviy xususiyatlar asosida kichik biznesni rivojlantirish. – Andijon: Hududiy iqtisodiyot tadqiqotlari, 2020. – 96 b.
8. Azimova S., Rizayeva N. Global iqtisodiyotda kichik biznesning roli va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil. – Xalqaro iqtisodiy jurnali, 2021, №2, b. 34–50.
9. Abduraximov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishdagi roli. – Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti, 2022. – 120 b.
10. Akbarov A. Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari. – Samarqand: Iqtisodiy xavfsizlik jurnali, 2019, №3, b. 22–38.